IS'HOQXON IBRAT ASARLARI O'RGANILISH TARIXIDAN

Toshmurodova Dilrabo Zokir qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti
E-mail: toshmurodovadilrabo02@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek ma'rifatparvar adabiyoti namoyandalaridan biri — Is'hoqxon Ibrat asarlarining o'rganilish tarixi, ularning ilmiy-tadqiqiy jihatdan tahlil qilinishi va adabiyotshunoslikdagi o'rni yoritib beriladi. Unda adib merosining turli davrlarda baholanishi, sovet davri va mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi.*

Maqolada Ibratning ma'rifatparvarlik, jadidchilik, tilshunoslik va tarixnavislik yo'nalishidagi faoliyati, uning asarlari nashri va ilmiy muomalaga kiritilishi jarayoni haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, olim va tadqiqotchilarning Ibrat ijodiga bo'lgan munosabati, uning adabiy merosini o'rganishdagi yutuq va kamchiliklar tahlil etiladi.

Maqola yakunida Ibrat asarlarini yanada chuqurroq o'rganish, ularni keng jamoatchilikka yetkazish hamda ilmiy izlanishlarni davom ettirish zarurligi asoslab beriladi.

Abstract. *This article examines the history of scholarly research on the works of Ishoqxon Ibrat, one of the prominent representatives of Uzbek enlightenment literature. It highlights the stages of academic study of his literary heritage and analyzes his place in Uzbek literary scholarship. The article comparatively discusses the evaluation of Ibrat's works during the Soviet period and in the years of independence.*

The study also explores Ibrat's contributions to enlightenment thought, Jadid reformism, linguistics, and historiography, as well as the process of publishing his works and introducing them into academic circulation. Particular attention is given to scholars' perspectives on his творчество, along with an assessment of achievements and shortcomings in the research of his legacy.

In conclusion, the article emphasizes the importance of further in-depth study of Ibrat's works, their wider dissemination among readers, and the continuation of scholarly research on his rich intellectual heritage.

Kalit so'z: *Lug'ati sitta-alsina, Jome' ul-xutut, tarixiy-etimologik tahlil, Mezon ul-zamon, Tarixi Farg'ona, derivatsion aspekt, morfologik aspekti, monografiya, maqola.*

Is'hoqxon Ibrat merosining o'rganilish tarixi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. Dastlabki davrda, ya'ni XX asr boshlarida uning asarlari, asosan, ma'rifatparvarlik ruhida baholangan. Jadid matbuotida Ibrat ilg'or fikrli ziyoli, ilm-fan va ta'lim

taraqqiyotini targ‘ib qiluvchi mutafakkir sifatida e’tirof etilgan. Keyingi davrlarda, xususan, sovet davrida Ibrat ijodiga nisbatan munosabat bir muncha murakkablashdi. Uning diniy qarashlari va milliy qadriyatlarni targ‘ib qilgan asarlari cheklangan holda o‘rganildi. Shunga qaramay, ayrim adabiyotshunoslar uning ijodini jadid adabiyoti kontekstida tahlil qilishga harakat qildilar. Bu tadqiqotlarda, asosan, Ibratning ijtimoiy-siyosiy qarashlari va badiiy mahorati masalalari yoritildi.

Mustaqillikka erishgandan so‘ng, Is’hoqxon Ibrat merosini o‘rganishga katta imkoniyat eshiklari ochildi. Uning asarlari qayta nashr etilib, ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida keng muhokama qilina boshlandi. Ayniqsa, “Lug‘ati sitta-alsina”, “Jome’ ul-xutut” kabi asarlari tilshunoslar e’tiborini o‘ziga tortdi. Bu asarlar orqali Ibratning ko‘p tillarni mukammal bilganligi, til va yozuv masalalariga chuqur e’tibor qaratgani aniqlandi. Shu bilan birga, o‘tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Ibrat asarlari leksikasi masalasi ko‘pincha umumiy yaxlit tarzda tilga olingan, ammo maxsus tarixiy-etimologik tahlil obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Is’hoqxon Ibrat (1862–1937) — o‘zbek ma’rifatparvarlik adabiyoti, jadidchilik harakati va tilshunoslik tarixida muhim o‘rin tutgan yirik ijodkorlardan biridir. Uning adabiy, ilmiy, publitsistik va tarjimonlik faoliyati o‘z davridayoq e’tibor qozongan bo‘lsa-da, ijodiy merosining ilmiy jihatdan tizimli o‘rganilishi murakkab tarixiy jarayonlarni bosib o‘tgan.

Is’hoqxon Ibrat asarlarining o‘rganilish tarixini shartli ravishda bir necha davrga ajratish mumkin:

-Ibrat hayotlik davrida va XX asr boshlarida berilgan baholar va izlanishlar;

-Sovet davrida bo‘lgan munosabat va cheklangan va ta’qiqlangan tadqiqotlar;

-Mustaqillik davrida Ibrat merosining qayta tiklanishi va chuqur o‘rganilishi, tadqiq qilinishi.

Ibrat asarlarining dastlabki o‘rganilishi. Is’hoqxon Ibrat o‘z zamonasida ma’rifatparvar jadid ziyolilari orasida tanilgan shaxs bo‘lgan. Uning “Lug‘ati sitta al-sina”, “Mezon ul-zamon”, “Tarixi Farg‘ona”, “Jome’ ul-xutut” kabi asarlari ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa tilshunoslik va tarix sohalarida e’tibor qozongan. XX asr boshlaridagi matbuotda Ibrat faoliyati ko‘proq ma’rifatchi, yangi usul maktablari targ‘ibotchisi va jadid sifatida baholangan.

Bu davrda uning asarlari maxsus ilmiy tadqiqot obyekti sifatida emas, balki amaliy va ma’rifiy manba sifatida qaralgan. Shuningdek, adib xalq uchun manfaatli asarlar yaratishga intilgan. Jadid adabiyoti vakillari — Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov singari ziyolilar bilan doimiy aloqalari Ibratning o‘sha davr madaniy muhitdagi o‘rnini belgilab bergan.

Sovet davrida Ibrat merosiga bo‘lgan munosabat. Sovet hokimiyati yillarida Is’hoqxon Ibrat merosini o‘rganish qattiq cheklangan. Jadidchilik harakati vakili sifatida u “millatchi”, “eskilik tarafdori” sifatida ko‘rilib, 1937-yilgi qatag‘on qurboni

bo‘lgan. Natijada uning asarlari uzoq yillar davomida ilmiy muomaladan va adabiy muhitdan chiqarib tashlangan.

Bu davr adabiyotshunosligida Ibrat nomi umuman tilga olinmaydi yoki qisqa, tanqidiy izohlar bilan cheklanadi. Ayrim manbalarda uning nomi tarixiy shaxs sifatida qayd etilgan bo‘lsa-da, ijodiy merosini chuqur tahlil qilish va o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lmagan. Shunga qaramay, sovet davrining so‘nggi yillarida jadidchilik harakatiga nisbatan munosabatning yumshashi Ibrat shaxsiga qiziqishning qayta uyg‘onishiga zamin yaratdi.

Mustaqillikka erishgach Ibrat asarlarining o‘rganilishi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarix va adabiy merosni qayta tiklash jarayoni boshlandi. Shu davrda Is’hoqxon Ibrat ijodi ham adabiyotshunoslar, tarixchilar va tilshunoslar tomonidan chuqur o‘rganila boshlandi. Uning jadidchilik harakatidagi o‘rni, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va ilmiy merosi xolisona baholandi.

Mustaqillik yillarida Ibrat asarlarining ayrimlari qayta nashr etildi, ilmiy maqolalar va monografiyalar yaratildi. Tadqiqotlarda Ibrat ko‘p qirrali ijodkor — shoir, tarixchi, tilshunos, pedagog va tarjimon sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, “Lug‘ati sitta al-sina” asari o‘zbek tilshunosligi tarixida muhim manba sifatida qaralib, ko‘plab ilmiy izlanishlarga va tadqiqotlarga asos bo‘ldi.

Is’hoqxon Ibrat ijodini o‘rganish oldin ham hozir ham eng dolzarb va eng asosiy mavzu bo‘lib kelmoqda. Bu borada ibratshunos olim Ulug‘bek Dolimovning xizmatlari beqiyosdir. Ulug‘bek Dolimov — 1939-yil 5-noyabr Toshkent shahrida tug‘ilgan. Adib adabiyotshunos, Filologiya fanlari nomzodi (1971), dotsent, pedagogika fanlari doktori (2008). Toshkent davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakultetini bitirgan (1962). Andijon viloyatidagi 20-maktab internatida o‘qituvchi (1963—1965), pedagogika bilim yurtida o‘qituvchi (1965—1970), universitetning o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘zbek adabiyoti kafedrasida o‘qituvchi, katta o‘qituvchi (1970), o‘zbek mumtoz adabiyoti, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedralari dotsenti (1980), tayyorlov bo‘limi qoshidagi gumanitar fanlar kafedrasi mudiri (1989—1993), milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti (1993-yildan). Ulug‘bek Dolimovning „Ma’rifat darg‘alari“ (1990), „Is’hoqxon Ibrat“ (1994), „Turkiston jadid maktablari“ (2006), „Milliy uyg‘onish pedagogikasi“ (2012), „Ahli irfon“ (2015) kitoblari chop etilgan. Ibratshunos olimning Is’hoqxon Ibrat ijodiga bag‘ishlab ko‘plab ijodiy ishlar olib borgan. Uning Nurboy Jabborov bilan birgalikda “Tanlangan asarlar” kitobi Toshkent. Ma’naviyat, 2005; “Jadidlar. Is’hoqxon To‘ra Ibrat” kitobi; Yoshlar nashriyoti uyi, Toshkent-2022; “Is’hoqxon Ibrat” – Toshkent: Sharq, 1994 asosiy manbaa hisoblanadi. “Tanlangan asarlar” kitobiga “Asardurki, olamg‘a o‘lg‘ay nishon” so‘zboshi, “Lug‘ati sittati alsina”, “Jome’ ul-xutut”, G‘azallar, “Tarixi Farg‘ona” asari, ilmiy va ma’rifiy maqolalar, “Mezon uz-zamon” asarlari kiritilgan.

Is'hoqxon to'ra Ibrat shoir, tarixnavis, tilshunos va islomshunos sifatida o'zidan boy meros qoldirgan. Xatning o'n yetti turida qalam yurgizgan mohir xattot, o'z nomida "Matbaai Is'hoqiya"ni tashkil etgan birinchi o'zbek noshirlaridan edi. Ulug' ma'rifatparvarning ushbu "Tanlangan asarlar"idan shu paytgacha o'quvchilarga ma'lum bo'lmagan "Mezon uz-zamon" asari, o'nga yaqin yangi she'rlari, o'z davrining dolzarb muammolariga bag'ishlangan publitsistik maqolalari o'rin olgan. Shuningdek, "Tarixi Farg'ona"ning muallif dastxati asosida ko'chirilgan mo'tabar nusxasidan tayyorlangan matni kitobxonlar e'tiboriga havola etilmoqda.[1] Kitob boshida keltirib o'tilgan. "Lug'ati sittati alsina" bobida kitob yaratilish tarixi va nima maqsad uchun yaratilgani keltirilgan. "Jome' ul-xutut" bobida esa aynan asarning "piktografik yozuvlardan keyin vujudga kelgan eng qadimiy tovush-harf yozuvlari — finikiya, yahudiy, suriya, arab, yunon, fors, slavyan, sanskrit, hind, lotin, arman, gruzin, uyg'ur va boshqa qirqdan ortiq yozuvlar, ularning kelib chiqishi hamda taraqqiyoti haqida ma'lumot beradi. Ibrat faqat o'z vatanidagi yozuv namunalari bilan cheklanib qolmay, arab mamlakatlaridagi qadimiy yozuv madaniyatini ham o'rgangan".[2] G'azallar bobida 14 ta g'azal, 3 ta manzuma, 1 ta muxammas, 1 ta musaddas, "Madaniyat haqida masnaviy", "Shikoyati zamona", "Qoziyi qotil", "Izhori tashakkur" she'rlari kiritilgan. "Tarixi Farg'ona" bobida esa "Bismillahir rahmonir rahim", "Xo'qand shahri binosi", "Asri Norbo'taxon", "Asri Olimxon ibn Norbo'taxon", "Asri Umarxon Jannatmakon ibn No'taxon", "Asri Muhammad Alixon ibn Umarxon", "Murodxon ibn Olimxon", "Xudoyorxon ibn Sheralixon", "Xudoyorxonning ikkinchi julusi", "Shohmurodxonning julusi va azli. Xudoyorxonning takror jonlig'i budur", "Voqeai Sulton Sayyid ibn Mallaxon", "Xudoyorxonning to'rtinchi xonlig'i", "Fo'lodxon ibn Murodxon", "Xikoya", "Tarixi Andijon", "Tarixi Namangon" bo'limlari kiritilgan. Ilmiy va ma'rifiy maqolalar bobida "ИСТОРИЯ ДРЕВНЕГО ГОРОДА АХСЬ1 В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ", "ПИСЬМО В РЕДАКЦИЮ ИСҲОҚХОН ТЎРАДИН ТУЗЕМНИ ГАЗЕТГА МАҚОЛА", "ОТКРМТИЕ КОКАНД-НАМАНГАНСКОЙ ЖЕЛЕЗНОЙ ДОРОГИ", "ПО ПОВОДУ ВБ1БОРОВ ДОЛЖНОСТНМХ ТУЗЕМЦЕВ В НА- МАНГАНЕ", "ТОШКЕНТ САФАРИНДАГИ МАЪЛУМОТЛАРИМ", "ПИСЬМО ИЗ ТЮРЯ-КУРГАНА", "ЭСКИ МАКТАБЛАР ХУСУСИДА", "МИЛЛАТНИ КИМ ИСЛОҲ ЭТАР?" maqolalari kiritilgan. "Mezon uz-zamon" bobida 9 ta mezon kiritilgan. Oxirida tushunarsiz so'zlar uchun lug'at ham keltirib o'tilgan. "Tanlangan asarlar" kitobi haqida Ulug'bek Dolimov va Nurboy Jabborov shunday ta'kidlaydi:" Mustaqillik sharofati bilan Ishoqxon to'ra Ibrat merosini ilmiy o'rganish va ommalashtirish imkoniyati kengaydi. Ushbu nashr ham bunga dalil bo'la oladi. Ikki og'iz ushbu nashrning avvalgilaridan farqli jihatlari xususida. Birinchidan, shoirning shu paytgacha

[1] U.Dolimov, N.Jabborov. "Tanlangan asarlar". – T.: "Ma'naviyat", 2005. 1 b.
[2] U.Dolimov, N.Jabborov. "Tanlangan asarlar". – T.: "Ma'naviyat", 2005. 14 b.

ilm ahlira ma'lum bo'lmagan she'rlari aniqlanib, to'plamga kiritildi. Ikkinchidan, «Tarixi Farg'ona» asarining Ishoqxon to'ra Ibrat o'z qo'li bilan kitobat qilgan dastxat nusxasidan Inoyatxon To'raqo'rg'oniy ko'chirgan mo'tabar qo'lyozmasi asosidagi matni nashrga tayyorlandi. Bu matn asarning avvalgi nashridan anchagina farq qiladi. Uchinchidan, «Mezon uz-zamon» asari joriy imloda birinchi marta nashr etilmoqda. To'rtinchidan, Ishoqxon to'ra Ibrat publitsistik merosi namunalari ham ilk bor e'lon qilinmoqda".[3] Bu kitob Ibrat merosining bir joyga jamlanishiga xizmat qilgan va o'quvchi, kitobxon, izlanuvchi uchun ham eng zaruriy materialdir.

Keyingi muhim kitoblaridan biri bu "Jadidlar. Is'hoqxon To'ra Ibrat" risolasidir. Pedagogika fanlari doktori, professor Ulug'bek Dolimovning mazkur risolasida Is'hoqxon Ibratning hayot yo'li, tarixnavis, tilshunos va shoir sifatidagi ijodiy faoliyati yoritiladi. Shu bilan birga, risoladan Ibratning noshirligi, jamoat arbobi sifatidagi faoliyati haqida e'tiroflar hamda uning hikmatli so'zlari o'rin olgan. Bu kitob 4 ta katta boblarga bo'linadi, uning ichida kichik-kichik bo'limchalardan tashkil topgan.

1-bob. Adib hayoti

2-bob. Ijodi va faoliyati

3-bob. Hikmatli so'zlari

4-bob. E'tirof boblariga ajratilgan.

Adib hayoti bobida Is'hoqxon Ibratning tug'ilgan vaqtidan boshlab to o'limiga qadar bo'gan hayot yo'li va ijodining dunyoga kelishi haqida yoritilgan.

Ijodi va faoliyati bobida esa birinchi navbatda "Lug'ati sitta al-sina haqida" keltirilgan. Lug'ati sitta al-sina lug'ati boshqa asarlari kabi boy ma'lumot asosida katta ehtiyoj samarasi sifatida dunyo yuzini ko'rdi.[4] Undan keyin "Jome' ul-xutut to'g'risida" va "Tarixi Farg'ona" asari kiritilgan. Bu bobida "publitsist, matbaachi va noshirlik faoliyati" ham yoritilgan. Shuningdek, "jamoat arbobi sifatida" va "20-30-yillar muhiti" bo'limlari ham o'rin olgan. Undan so'ng "she'riyati haqida" ham ma'lumotlar keltirilgan. Bu bobning yakunida esa "xotira va xulosa" ya'ni U.Dolimovning izlanishlari davomida ko'rgan-bilgan xotira va xulosalari aks etgan.

"Hikmatli so'zlari" bobida esa adibning qanchalik turfa xil yondashuvchanligini ko'rishimiz mumkin. "E'tirof" bobida Is'hoqxon Ibrat haqida iliq fikrlar yozuvchi va shoirlar tomonidan yozilgan.

Murotali Latipov, Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Murotali Latipov ilmiy ishini Is'hoqxon Ibratning asarlari bo'yicha yoqlagan olim hisoblanadi. Uning "Is'hoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari" monografiyasi, "Is'hoqxon Ibrat asarlarida ijtimoiy-siyosiy, maishiy leksik qatlam qo'llanishidagi lisoniy va nolisoniy omillar", "Is'hoqxon Ibratning lug'atchilik faoliyati" mavzularidagi maqolalari mavjud.

[3] U.Dolimov, N.Jabborov. "Tanlangan asarlar". – T.: "Ma'naviyat", 2005. 45-46 b.
[4] U.Dolimov. Jadidlar. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.-31b

“Is’hoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari” monografiyasida so‘z boshi qilib, “Mazkur monografiyada Is’hoqxon to‘ra Ibratning lingvistik qarashlari nazmiy, nasriy asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Unda XX asrning 20-30 yillardagi lisoniy jarayon, o‘zbek tilshunoslik ilmida Is’hoqxon Ibrat ilmiy-ijodiy merosining o‘rganilishi, asarlari leksikasining tarixiy-etimologik aspekti, derivatsion va morfologik xususiyatlari yoritilgan. Adib asarlaridagi lug‘aviy, morfologik birliklar o‘rni bilan hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyosan o‘rganilgan, ular orasidagi umumiylik va farqli jihatlar belgilangan.[5] Bu monografiya 3 bob, 9 ta fasldan iborat. 1-bob quyidagicha nomlangan “O‘zbek filologiyasida Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining o‘rganilishi” va bu qismda “Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosining tadqiqi”, “Is’hoqxon to‘ra Ibrat ilmiy-ijodiy merosi tilshunoslik obyekti sifatida”, “Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlari leksikasida davr ijtimoiy-siyosiy va maishiy holatining aks etishi” fasllaridan tashkil topgan. 2-bob “Ibrat asarlari leksikasining tarixiy-etimologik aspekti va leksik-semantik xususiyatlari” deb nomlangan va “Ibrat asarlari leksikasida o‘z qatlam so‘zlari va uning mavzuviy tasnifi”, “Ibrat asarlari leksikasida o‘zlashgan va o‘zga til elementlari”, “Ibrat asarlarida qo‘llangan so‘zlarning leksik-semantik munosabatlari tavsifi” fasllarini o‘z ichiga oladi. 3-bob esa “Ibrat asarlari tilining derivatsion va morfologik aspekti”, fasllari esa “Ibrat asarlarida qo‘llangan yasama so‘zlarning umumiy xususiyatlari”, “Ibrat asarlarida qo‘llangan uzual va okkazional yasama so‘zlarning derivatsion xususiyatlari”, “Ibrat asarlari tilining ayrim morfologik xususiyatlari”.

Monografiya yakunida umumiy xulosa o‘rnida “Jadidchilik harakatining taniqli namoyondasi Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlarining leksik-grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalarga kelish imkoniyatini berdi:

Ma’rifatparvar jadid adibi Is’hoqxon to‘ra Ibratning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ijodiy merosi millatimiz tarixi, madaniyati va milliy adabiyotimiz yuksalishida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, uning tilshunoslik merosi, yaratgan nazmiy va nasriy asarlarining til xususiyatlari XX asr boshlaridagi adabiy tilning shakllanishida, zamonaviy o‘zbek tilshunosligining taraqqiyotida munosib o‘rin tutadi. Xalq va millat kamolotini til bilan bog‘lagan boshqa jadidlar qatorida Is’hoqxon Ibrat ham til masalasiga jiddiy munosabatda bo‘lib, ijodiy faoliyatida o‘zbek tilining sofligini saqlashga, til bilishning jamiyatda maktab va maorif, fan va madaniyat taraqqiyotini yuksaltiruvchi vosita sifatidagi ahamiyatiga alohida e’tibor bilan qaraydi.

Ibrat asarlari tilida salmoqli o‘rin egallagan ijtimoiy-siyosiy leksikani mavzuiy guruhlarda tasniflab tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ularda o‘sha davr ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayoti voqeligini aks ettiruvchi so‘z va atamalar keng qo‘llangan. Mavzuiy guruhlardagi ta’lim-tarbiyaga oid va diniy tushunchalar, shaxs otlari, lavozim va

[5] M.Latipov. Is’hoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari. Monografiya, Bookmany print nashriyoti, 2024.

mansab, ma'muriy-hududiy bo'linma va binolar, matbuot nashrlari, kasb-kor, turli soha, narsa-buyum, o'lchov nomlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning asosiy qismi lug'aviy tarkibi nuqtai nazaridan o'z qatlam leksikalari hisoblanadi, ayrimlari esa davr adabiy tilida aks etgan o'zga til elementlaridir.

Is'hoqxon Ibrat asarlari leksikasida imkon qadar o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanishga harakat qilingan va bu orqali asarlar tili sodda, xalq tiliga yaqin bo'lishiga intilgan. Shu sababli uning nazmiy va nasriy asarlari matnida o'z qatlam, ya'ni genetik jihatdan umumturkiy va o'zbek tiliga oid so'zlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Genetik jihatdan fors-tojikcha va arabcha leksikmalarning qo'llanishi adibning arab va fors-tojik tillarini chuqur bilganidan dalolat beradi. Ruscha va rus tili orqali o'zlashgan baynalmilal leksemalarni esa mazkur davr neologizmlari deb baholash mumkin. Keyinchalik ularning aksariyati yangilik bo'yog'ini yo'qotib, o'zbek tilining leksik-grammatik qonuniyatlariga moslashgani holda o'zlashma so'zga aylangan.

4. Asarlar leksik fondida omonim so'zlar faol qo'llanganligi kuzatildi. Bu esa muallifning leksik birliklardan o'z o'rnida foydalana olganligidan, leksemalarning muayyan muloqot maqsadi va nutq sharoiti, vaziyatiga mosini tanlab ishlatish mahoratini ko'rsatadi. Aynan shunday talab vaziyatini to'g'ri anglagan adib o'z asarlarida shakldosh til birliklaridan unumli va samarali foydalanib, nozik so'z o'yinlarini yaratish, so'zlarning ohangdoshligini oshirish va she'riy asarlarida qofiyani tugal voqelantirishga erisha olgan.

5. Leksik-semantik munosabatlar voqelanishida sinonim va antonimlar alohida o'rin egallab, til boyligidagi tizimli munosabatlarning muhim jihatini o'zida aks ettiradi. Sinonimik munosabatlar semantik o'xshashlik asosida voqelansa, antonimik munosabatlar qutbiy semantik farq asosida voqelanishi bilan xarakterlanadi. Ibrat asarlarida qo'llangan sinonimlar ta'sirchanlikka, takrorning oldini olishga qaratilgan, antonimlar esa voqelikni zidlash, qiyoslab ifodalashga keng imkon bergan.

6. Ibrat asarlarida o'zbek tili so'z yasalishining umumiy modellari voqelangan; ijodkor asarlari tilida o'zbek tilining mahsuldor so'z yasalish modellari asosida yasalgan o'zbekcha so'zlar asosiy o'rinni egallaydi. Kattalik, tenglik, hukmronlik, rozilik, jozibalik, xushnudlik, ulug'lik kabi so'zlar o'zbek tili so'z yasalish modellari asosida hosil qilingan. So'zlar asosiy o'rinni egallaydi. Kelinlik, faqirlik, hukmronlik, rizolik, judolik, xursandlik, ulfatchilik kabi so'zlar o'zbek tili so'z yasalish modeliga to'la mos keladi. Kompozitsiya usulida yasalgan xo'b bo'lmoq, kamon o'lmoq, tavon qilmoq, xalq etmoq, ma'lum o'lmoq kabi so'zlar o'zbek tili so'z yasalish qolipiga mos tushsa, ayladi gum, qildik gunoh, qildi kar-kar kabi qo'shma so'zlar yasalishi va qo'llanishida she'riy uslub talabi bilan ayrim farqlar ko'zga tashlanadi.

7. -xona, -garchilik, -dosh, -chi kabi ot yasovchilar; be-, ba-, no-, -vor kabi sifat yasovchilar uzual ma'noli yasama so'zlar yasalishida; -iy, -viy, -obod, -iya, -iyat kabi so'z yasovchilar esa muallif uslubiga xos okkazionalizmlarning yasalishida vosita bo'lib xizmat qilgan. Asarlar matnidagi insoniy (vagon), ozodiy, obodiy, bekora, dilogoh, islomobod, chandovul, musulmoniya, gubernalik, mang'itiya, sardiya, o'zbekiya, qipchoqiya, qirg'iziya kabi okkazional yasalmalarning barchasi muallif tilining morfologik aspekti uchun muhim birliklar sanaladi.

8. Ibrat asarlarida tushum kelishigining qisqargan shaklda, jo'nalish kelishigining me'yoriy -ga, -ka affikslaridan tashqari -g'a, -a, -na shakllarida keng qo'llanishi aniqlandi. Jo'nalish kelishigi qo'shimchasining -a shaklida qo'llanishida ko'pincha [a], [ona] kabi bo'g'inlar bilan tugagan so'zlar bilan qofiyadoshlikni ta'minlash maqsad qilingan. Chiqish kelishigi an'anaviy she'riyatdagi kabi -din shaklida, egalik shaklining III shaxs birlik qo'shimchasi -in shaklida ishlatilgan.

9. Adib asarlari tilida sifatdoshning -duk, -g'on, ravishdoshning -ub, -g'oni, o'tgan zamon shaklining -li, -dur, hozirgi zamon shaklining -yur, hozirgi-kelasi zamonning -ur, kelasi zamonning -yir, -g'ay, harakat nomining -ur, orttirma nisbatning -dur shakllari kuzatildi. Edi, emish, ekan kabi to'liqsiz fe'llar ekon, edu shakllarida, bilan ko'makchisi ilan, birla, ila shakllarida qo'llangan. Til hodisalarini ilmiy, amaliy jihatdan muayyan metodologik asoslarda tekshirish, tahlil qilish, xolis baholash hamda adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari faktlari bilan qiyoslab o'rganish natijalari jonli xalq tili elementlarining o'tmishdagi tarixiy holati va xususiyatlarini aniqlashda muhim asos vazifasini o'taydi. Is'hoqxon to'ra Ibrat asarlari tilining leksik-grammatik xususiyatlari uning yorqin isbotidir.

Adib asarlari tili bo'yicha lingvistik yo'nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar o'zbek milliy tili tarixi, taraqqiyotining XX asr boshlaridagi rivojlanish bosqichi haqida muhim nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi"[6] deb ta'kidlaydi.

Rasulbek Ummatov – Is'hoqxon To'ra Ibrat, Tarixi Farg'ona, Ibratning ijodiy faoliyati mavzusida maqola chop etgan.

Qambarova Dilso'z - Is'hoqxon To'ra Ibrat ilmiy merosining qisqacha tahlili mavzusida maqola chop etgan.

Ro'ziyeva Nasiba - Is'hoqxon To'ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va tarjimon mavzusida maqola chop etgan.

Allambergenov Hamza Kamalovich va Normengliyeva Dilnoza Baxtiyor qizi – Ibrat she'riyatida ma'rifatparvarlik g'oyalari mavzusida maqola chop etgan.

Nasibaxon Mamatjonova – Is'hoqxon Ibrat "Tarixi Farg'ona " asari mavzusida maqola chop etgan.

[6] M.Latipov. Is'hoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari. Monografiya, Bookmany print nashriyoti, 2024.

Burhanova Samira va Mirhakimova Feruza – Ibratning hayoti, ma'rifiy va jadidchilik merosi, tarjima va ta'lim faoliyati haqida ilmiy maqola yozgan. Aralbayeva Lazzat Murod qizi va Miraxmedova Shoxida Nusratilloyevna – Ibrat asarlaridagi ma'naviy-axloqiy qarashlarni o'rgangan va tadqiqot olib borgan.

Feruza Azizova – Ibratning ma'rifiy faoliyati va ilmiy-adabiy merosi bo'yicha maqola tayyorlagan va chop etgan.

Xolmatov G'ayratjon – Ibratning ma'rifiy, taraqqiyot va sivilizatsiya haqidagi ilmiy qarashlarini tahlil qilgan va ilmiy izlanish olib borgan.

Akbar Nurmatov – Ibratning safar liriklari, safarnomalari va ilm-taraqqiyot g'oyalari bo'yicha tadqiqot ishlarini va izlanishlar olib borgan.

Umida Nizomjonova – Ibratning g'azallaridagi badiiy-estetik tahlilga bag'ishlangan maqola chop etgan.

Ko'rib turganimizdek, mustaqillik yillaridan keyin jadid adabiyotiga juda katta e'tibor qaratildi va Is'hoqxon Ibratning hayot yo'li va ijodiy faoliyati to'g'risida

Xulosa. Umuman olganda, mustaqillikdan keyin jadid adabiyotini o'rganishga katta imkoniyat eshiklari ochildi. Shu bilan bir qatorda Is'hoqxon Ibrat asarlari ham bundan mustasno emas. Uning asarlarini o'rganish ham cho'qqiga chiqdi. Adibning asarlari rangbarangligi va ko'p tilliligi bilan ajralib turadi. Bu esa tadqiqot obyekti uchun juda ham muhim hisoblanadi va ko'plab tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. U.Dolimov, N.Jabborov. Tanlangan asarlar. – Toshkent "Ma'naviyat" 2005.–200 b.
2. Dolimov U. Is'hoqxon to'ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
3. Jabborov N. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Zabarjad media, 2022.
4. Dolimov U. Is'hoqxon Ibrat. – Toshkent: Sharq, 1994.
5. Vohidova K.A. Is'hoqxon Junaydullohxuja o'g'li Ibrat va uning tarixiy-ilmiy merosi. – Namangan. 2018.
6. Ziyoev H. Istiqlol - ma'naviyat negizi. – T.: Ma'naviyat, 1999. 190 b.
7. Ishoqov R. Nizomova J.lar bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart-aprel; B.Nizomov bilan o'tkazilgan suhbat matni. 1994. Mart; R.Nazarov bilan o'tkazilgan suhbat. 1994. Mart. Suhbatlarni K.A.Vohidova uyushtirgan.
8. Sariboeva M. Ibratning ibratli yuli // NamDU ilmiy axborotnomasi, 2019. 8-son, - B.322-329.
9. Is'hoqxon Ibrat nomli jamoa xo'jaligi madaniyat ishlari bo'yicha rais muovini B.Nizomov bilan K.Vohidova tomonidan o'tkazilgan suhbat materiallari. 1994
10. M.Latipov. Is'hoqxon Ibrat asarlarining til xususiyatlari. Monografiya, Bookmany print nashriyoti, 2024.